

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No‘monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdama	
Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo‘ziyev	
Bo‘lajak pedagoglarda hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta‘limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta‘limoti	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo‘lgan munosabati	355
N.U.Jamalo	
Globalashuv jarayonida ta‘limning o‘zgarishi va gumanitar fanlarning o‘rni	360
M.A.Matmusayeva	
O‘yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O‘quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta‘lim talabalarini ma‘naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari	383
U.Xolova	
Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma‘rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma‘rifat va ma‘rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o‘qitishda mobil ta‘lim texnologiyalarining imkoniyatlari	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni	394
A.M.To‘rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo‘lg‘usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo‘ziyev	
Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg‘onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivoidagi o‘rni	418
Y.M.Namozova	
Ta‘lim va insonparvarlikka asoslangan “Taraqqiyot strategiyasi” jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



UO'K: 338.486

**GEOGRAFIYA FANINI MASOFAVIY O'QITISHDA MOBIL TA'LIM
TEKNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI****THE POTENTIAL OF MOBILE LEARNING TECHNOLOGIES IN DISTANCE EDUCATION
OF GEOGRAPHY****ВОЗМОЖНОСТИ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ДИСТАНЦИОННОМ
ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ****Baymuradova Sarvinoz Elmurod qizi** Toshkent davlat pedagogika universiteti, geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrası
o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada geografiya ta'limida mobil texnologiyalar foydalanish, mobil ta'lim, mobil ta'limning imkoniyatlari va qulayliklari yoritilgan. Mobil texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, katta hayotiy ahamiyatga ega ekanligi, maqolada mobil texnologiyalariga asoslangan elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasi, mobil qurilmalaridan ta'lim maqsadlarida foydalanishning bir necha yo'llari tavsiya qilingan.

Abstarct

This article discusses the use of mobile technologies in geography education, highlighting mobile learning, its opportunities, and conveniences. It outlines the advantages of utilizing mobile technologies, emphasizing their significant practical importance. The article also recommends several methods for creating electronic educational resources based on mobile technologies and ways to use mobile devices for educational purposes.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование мобильных технологий в образовании по географии, освещая мобильное обучение, его возможности и удобства. Описываются преимущества использования мобильных технологий, подчеркивая их значительную практическую важность. Также в статье предлагаются несколько методов создания электронных образовательных ресурсов на основе мобильных технологий и способы использования мобильных устройств в образовательных целях.

Kalit so'zlar: Mobil ta'lim, mobil qurilmalar, mobil texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, dars jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, ta'limiy maqsadlar, multimedia vositalari, smatfon, planshet.

Ключевые слова: мобильное обучение, мобильные устройства, мобильные технологии, информационно-коммуникационные технологии, процесс урока, знания, навыки, компетенции, образовательные цели, мультимедийные средства, смартфон, планшет.

Key words: mobile learning, mobile devices, mobile technologies, information communication technologies, lesson process, knowledge, skills, competencies, educational goals, multimedia tools, smartphone, tablet.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlardan asosiy maqsad ta'lim tizimini jahon andozalariga moslashtirish, yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, yuksak intellektual salohiyat egalari qilib tarbiyalash hisoblanadi. Xususan, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash masalalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida mobil ta'lim texnologiyalarini qo'llash va ularning didaktik imkoniyatlaridan unumli foydalanish ta'limda yuqori samaradorlikka erishishning muhim vazifalardan biri bo'lib, talabalar bilim olishida ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda, geografiya ta'limida ham mobil texnologiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Geografiya darslarida mobil texnologiyalarni qo'llash natijasida, o'quv adabiyotlari va elektron xaritalari, maktab geografiya darsliklarining mobil ilova ko'rinishiga

o'tkazilishi, internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli sohalari bo'yicha yangi-yangi ma'lumotlar olish mumkinligi (masalan, kundalik iqlim, mamlakatlar, aholisi, xo'jaligi va geosiyosiy sharoiti va h.k) talabalar uchun qulayliklar yaratadi. Sababi hozirgi kunda barcha talabalarda planshet, telefon va smartfonlarning mavjudligi ta'limning masofaviy o'zlashtirishga imkon beradi. Shu o'rinda mobil ta'lim deganda, mobil qurilmalar orqali ta'limni rejalashtirish va amalga oshirishni nazarda tutadi, bu ixcham, ko'chma, mobil qurilmalar va texnologiyalar orqali muntazam ravishda olib boriladigan faoliyat bo'lib, ta'lim oluvchilarga axborot olish yoki yaratish, muloqot qilish orqali ta'lim jarayonining yanada samarali bo'lishiga imkon beradi.

Kengroq ma'noda mobil texnologiyalar global tarmoqqa kirishni ta'minlovchi mobil (ko'chma) qurilmalar va simsiz aloqa vositalaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalardir. Shu ma'noda mobil ta'lim masofaviy ta'lim bilan bir qatorda elektron ta'limning bir turidir [8]. Mobil ta'lim talabalarga mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida o'quv materiallarini o'rganishga imkon beruvchi ta'lim turidir. "Mobil ta'lim – mobil qurilmalar yordamida, vaqt va joydan mustaqil, modulli yondashuvlar pedagogik asosida maxsus dasturiy ta'minot yordamida tashkil etilgan elektron ta'limdir" [4];

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Geografiya ta'limida darsliklar asosiy bilim olish manbai bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ular yuqori ilmiy darajaga ega bo'lishi, metodik tuzilishi, didaktik maqsad va vazifalariga nisbatan birinchi darajali o'qitish vositasi hisoblansa, mobil texnologiyalar didaktik maqsad va vazifalarga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib, butun o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi emas, balki ularga erishish vositasi hisoblanadi. Geografik mashg'ulotlarda mobil texnologiya vositalaridan foydalanish asosli bo'lishi bilan bir qatorda an'anaviy tayyorgarlikka nisbatan aniq afzalliklarni taqdim etishi lozim.

Mobil ta'lim olish amaliyotining zamonamizdagi ommalashuvi va rivojlanib borishi uning quyidagi afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatadi:

- mobil ta'limda makon va vaqt tushunchalarining ahamiyati yo'q. Ya'ni mobil ta'lim bu – mobil qurilmalar orqali istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatidir;
- mobil texnologiyalaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanish talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiruvchi noyob vosita hisoblanadi;
- mobil ta'lim – bu o'quv materiallarini kichik ekranlar ichiga shunchaki joylashtirish emas, balki innovatsion ta'lim shakllari va usullarini joriy etish yo'lidir;
- mobil ta'lim o'zida geymifikatsiya elementlarini mujassamlashtiradi;
- mobil ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida axborotlarning almashinuvi jadal tarzda kechadi;
- mobil qurilmalarning moslashuvchanligi ta'lim oluvchilarning har biriga individual yondashuvni saqlab qolgan holda, bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilarning bilim darajasi va materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring qilish imkoniyatini taqdim etadi;
- mobil ta'lim multimediyali xilma – xillikdagi o'quv materiallarini jamlaydi va vizual tarzda taqdim etadi;
- mobil ta'lim professional va AKT sohasida ko'nikmalarni rivojlantirish va malaka oshirishning noyob vositasi hisoblanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 42-maqsadida respublikamizda 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amaliyotga joriy etish bo'yicha "Milliy o'quv dasturiga asosan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish" [1. 161-b] nazarda tutilgan. Bundan kelib chiqadiki, bugungi innovatsion ta'lim muhitida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar, ularning ta'limni tashkil etishdagi rolini oshirishga bo'lgan ehtiyoj geografiya fanlarini o'qitishga nisbatan innovatsion yondashishni taqozo etadi. Milliy dasturga asosan mobil texnologiyalarga asoslangan mobil ilovalar ma'lum bir platformani yaratish uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dasturlar hisoblanadi. Mutaxassislar tayyorlashning eng samarali va istiqbolli tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan masofaviy ta'lim uchun mobil ilovalardan foydalanish ta'limning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shunday mobil ilovalar negizida "Geografiya" android ilovasini misol qilib

keltirishimiz mumkin, bu oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari va umumta'lim maktablarida dars beruvchi fan o'qituvchilari uchun yordamchi manba sifatida xizmat qiladi [2].

Android studio muhitida ishlab chiqilgan ilovalarni Play market (Play Market — bu android tizimidagi telefonlar uchun mo'ljallangan maxsus mobil dastur hisoblanadi, u orqali kerakli o'yin va dasturlar, elektron maxsulotlarni yuklab olish mumkin [9]) orqali, Apple studio muhitida ishlab chiqilgan ilovalar AppStore (App Store - bu iOS va iPadOS operatsion tizimlariga asoslangan mobil qurilmalar uchun Apple tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadigan ilovalar do'koni [10]) orqali mobil qurilmalarga o'rnatiladi va undan foydalanish shakli internetga ulangan holda yoki internetsiz ko'rinishida bo'ladi.

V.A.Kuklev (2010)ning fikriga ko'ra, mobil ta'limning yetakchi didaktik imkoniyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: zamonaviy ta'lim uchun zarur bo'lgan yangi konsepsiyalarni amalga oshirish imkoniyati, vazifalarni o'rganish va bajarish aktivligini oshirish uchun an'anaviy ta'lim bilan bir qatorda olib borish imkoniyati, masofaviy repetitorlik (bilimlarni faol egallash, iste'dod va qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlash), yangi bilim sohalarini o'zlashtirish va yangi ko'nikmalarni egallash (texnologiyalar, dasturiy ta'minot, Internet rarmog'i), talabaning hohishiga ko'ra istalgan vaqtda, istalgan joyda ta'lim resurslariga ochiq kirish, ko'chma o'yin qurilmalari yordamida o'yinli mobil ta'limni amalga oshirish, web 3.0 texnologiyalari asosida ma'lumotlarni audio-vizual taqdim etish, gipermedia versiyada o'quv materiallarini chop etish, talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish, interaktiv tarjimadan tezkor foydalanish va chet tilini o'rganish, axborot va ma'lumotnomalarni tezkor taqdim etish, interaktiv so'rovlarni tezkor o'tkazish va ovoz berish, birgalikda telekommunikatsiya loyihalarini tashkil etish va ishtirokchilar bilan har qanday vaqtda va ularning o'rin-joylaridan qat'iy nazar fikr almashish [4].

I.N.Golisina (2011)ning fikriga ko'ra, mobil telefonlar va kommunikatorlar soni shaxsiy kompyuterlar sonidan bir necha marta yuqori bo'lishiga qaramay, shuningdek mobil qurilmalar kompyuterlarga qaraganda kuchliroq parametrlarga ega bo'lsada, mamlakatimizda, mobil telefonlari ta'lim tizimida tizimli ravishda ishlatilmaydi [3].

Bundan tashqari, talabalar ta'lim jarayonini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki ko'ngilochar maqsadlarda auditoriyada mobil qurilmalardan foydalanish xavfi mavjud. Ta'limda mobil qurilmalardan foydalanish professor-o'qituvchilardan tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Rossiya Federatsiyasi va Norvegiya davlatlari o'qituvchilar tajribasini tahlil qilib S.V.Titova va A.P.Avramenko (2014)lar yangi avlod davlat ta'lim standartlari o'qituvchilardan axborot kompetensiyalarining professional darajasiga ega bo'lishni talab etadi, chunki ta'limning an'anaviy shakliga mobil texnologiyalar asosida yaratilgan yangi shakllarni joriy etish, mobil qurilmalar uchun mavjud ta'lim ilovalardan foydalanish, ta'lim jarayoni uchun interaktiv qo'llab-quvvatlash va talabalarning mobil axborot bilan ishlash ko'nikmasi va kompetensiyasini rivojlantirish kerak" deb ta'kidlaydilar [7].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, geografiya fanining o'quv mashg'ulotlarida mobil texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish maqsadida geografiya ta'limiga moslashtirilgan mobil ta'lim tizimining modelini ishlab chiqish va mobil dasturni sinovdan o'tkazish zarurati borligini ko'rsatadi. Ta'lim tizimining o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishini ta'minlashdan iborat bu yondashuv foydalanuvchiga, ularning odatlariga, ko'nikmalariga, motivatsiyasiga, joylashuv o'rniga va boshqalarga e'tibor qaratishini nazarda tutadi. YUNESKO ning tahliliy eslatmalariga ko'ra, mobil qurilmalar ta'lim, shu jumladan, hayotimizning barcha sohalariga kirib kelishda davom etmoqda: "maktablar ko'pincha mobil telefonlar va boshqa shunga o'xshash qurilmalardan foydalanishni taqiqlaydi, lekin bu yondashuv uzoq vaqt davom etmaydi" [5]. Mobil ta'limdan foydalanib, "talabalarga matnli xabarlar orqali o'z fikrlarini almashish yoki mobil so'rovlarda ishtirok etish imkoniyatini berib, sinf ichidagi muloqotni yaxshilash mumkin, bu uyatchanlikni bartaraf etishga yordam beradi va talabalar qiziqishini oshiradi" [5].

Bundan ko'rinib turibdiki, mobil texnologiyalardan foydalangan holda geografiya darslarida o'quv jarayonini tashkil etish uchun texnologik shartlarni bajarish bilan bir qatorda ta'lim kontentini tayyorlash va usullarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator vazifalarni hal etish lozim bo'ladi. Jumladan:

ko'rsatib o'tilgan vositalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchidan ortiqcha mehnat talab qilmaydigan materiallarni taqdim etishning shunday usulini ishlab chiqish kerakki, ulardan foydalanish har qanday zamonaviy mobil qurilmalarda yetarlicha sodda va qulay bo'lishi lozim;

voqealarning tez rivojlanishi va aniq ko'rsatilishi o'quv materiallarini tez o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarning sodir bo'lishi, tekislik va tog' relyefining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tropik o'rmonlarning tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish jarayoni va h.k;

murakkab o'quv materialini oson tushuntirish imkonini berishi lozim. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkoni va antitsiklonlarni shakllanishi, tornado, sunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarning hosil bo'lishi, ularning oqibatlarini va h.k;

dasturiy mahsulotlar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalarning ko'rinishi va interaktivligini oshirish uchun mobil qurilmalarga erkin moslasha oladigan shakllardan foydalanish lozim;

fan doirasida so'rovnoma yoki testlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun eng qulay va samarali xizmatni tanlash, mos kontentni tayyorlash va talabalar faoliyatini tashkil etish lozim;

talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilgan o'qitish usullarini amalga oshirishda mobil qurilmalarning aloqa imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

Bugungi kunda mobil qurilmalar yordamida nazariy va amaliy ta'lim berishga mo'ljallangan xorijdagi yirik loyihalardan quyidagilarni alohida takidlash joiz: "Mobil ta'lim tizimi" (The Mobile Learning Network Project-MoLenet) (Buyuk Britaniya), "Mobil ta'lim muhiti" (Mobile Learning Environment Project-the MoLe) (AQSH), "Butun hayot davomida ta'limda mobil texnologiyalar" (Mobile Technologies in Lifelong Learning: best practices-MOTILL)(Yevropa ittifoqi), "Mobil ta'lim konsorsiumi" (Mlearning Consortium) (Kanada) [6]. Fikrimizcha, bunday mobil ta'lim loyihalari ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi hamda masofaviy ta'lim o'quv kurslari uchun samarali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Shuningdek, talabalarda interaktivlik hamda o'z o'zini boshqarish va o'zini o'zi baholashga imkon beruvchi maxsus ilovalar yordamida mustaqil ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, geografiya ta'limida mobil texnologiyalarni qo'llash ta'limni individuallashtirish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi, shuningdek, darslarni ko'rgazmali tashkil etish, interfaol va simulyatsion ko'rgazmali vositalardan faol foydalanish, imkoniyati jismonan cheklangan kishilarga ta'lim olish, shaxsiy kompyuter va qog'ozli o'quv adabiyotlarini sotib olmaslik, o'quv materiallarini oson foydalanuvchilar zamonaviy simsiz texnologiyalar (WAP, GPRS, EDGE, Bluetooth, Wi-Fi) dan foydalangan holda ma'lumot almashish, multimedia formatida axborot berish orqali materialni yaxshiroq o'zlashtirishga va eslab qolishga, ta'lim jarayoniga qiziqish hamda talimda sifat va samaradorlikning oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01. 2022 yildagi PF-60-sonli farmoni, 42-maqсад.
2. Baymuradova S.E. Zamonaviy geografik ta'limda mobil ilovalarning o'рни. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax 2023. 449-452 b.
3. Голицына И. Н., Половникова Н. Л. Мобильное обучение как новая технология в образовании // Образовательные технологии и общество. – 2011. – №1. – С. 241-25.
4. Куклев В. А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании. Автореферат диссер. на соискание уч. степени докт. пед. наук. – Ульяновск, 2010. – 46 с.
5. Мобильное обучение. Аналитическая записка. Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании. Декабрь 2010 – 12 с.
6. Tangirov X.E. Karimova Ch.A. Mobil texnologiyalari asosida elektron ta'lim resurslari yaratish. art.jdpu.uz.journal. 2021.03.29
7. Титова С. В., Авраменко А. П. Компетенции преподавателя в среде мобильного обучения // Высшее образование в России. – 2014. – №6. – С.162-167.
8. Starichenko B.E. Conceptual basics of computer didactics // Science Book Publishing House, Yelm, WA, USA. 2013.
9. Internet manba: <https://biliboltv.uz>
10. Internet manba: <https://ru.wikipedia.org>